NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

TOPONIMLARNING YASALISH XUSUSIYATLARI

Sativoldiyeva Dildora Sadridin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘ yicha falsafa doktori (PhD)
dildorasativoldiyeva@gmail.com
ORCID ID: 0009-00023977-2932

Annotatsiya: ***Maqolada o‘ zbek toponimik tizimidagi derivatsion jarayonlarning onomastik nominatsiya bilan munosabati hamda toponimlarning hosil bo‘ lish usullari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi apellyativ derivatsiya bilan toponimik nominatsiyani farqlash, struktur-grammatik model va nomning diaxron genezisi orasidagi tafovutni aniqlashtirishdan iborat. Tavsifiy, qiyosiy-nazariy, struktur-derivatsion va nominatsion-motivatsion tahlil asosida -iston komponentli nomlar, apellyativ asosli urbanonimlar hamda qo‘ shma oykonimlarning talqinlari muhokama qilinadi.***

Kalit so‘ zlar: *onomastika, toponim, toponimik nominatsiya, onomastik derivatsiya, apellyativ, konversiya, transonimizatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya, toponimik indikator, struktur-grammatik model, diaxroniya.*

ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ТОПОНИМОВ

Аннотация: *В статье проводится теоретико-методологический анализ взаимосвязи деривационных процессов в узбекской топонимической системе с ономастической номинацией, а также способов образования топонимов. Цель исследования заключается в разграничении апеллятивной деривации и топонимической номинации, уточнении различий между структурно-грамматической моделью и диахроническим генезисом названия. На основе описательного, сравнительно-теоретического, структурно-деривационного и номинационно-мотивационного анализа рассматриваются интерпретации названий с компонентом -истон, урбанонимов, образованных на апеллятивной основе, а также сложных ойконимов.*

Ключевые слова: *ономастика, топоним, топонимическая номинация, ономастическая деривация, апеллятив, конверсия, трансонимизация, аффиксация, композиция, топонимический индикатор, структурно-грамматическая модель, диахрония.*

WORD-FORMATION FEATURES OF TOPONYMS

Abstract: *The article provides a theoretical and methodological analysis of the relationship between derivational processes and onomastic nomination in the Uzbek toponymic system, as well as the methods of toponym formation. The study aims to distinguish appellative derivation from toponymic nomination and to clarify the differences between the structural-grammatical model and the diachronic genesis of a place name. Drawing on descriptive, comparative-theoretical, structural-derivational, and nominative-motivational analysis, the article examines interpretations of place names containing the -iston component, appellative-based urbanonyms, and compound oikonyms.*

Keywords: *onomastics, toponym, toponymic nomination, onomastic derivation, appellative, conversion, transonymization, affixation, compounding, toponymic indicator, structural-grammatical model, diachrony.*

KIRISH

Toponimlarning lingvistik maqomini aniqlash zamonaviy onomastikadagi asosiy masalalardan biridir. Atoqli geografik nomning hozirgi tarkibida yasovchi affiks yoki ikki lug‘ aviy asos mavjudligi hali mazkur nom aynan shu vositalar orqali toponim sifatida yaratilganini anglatmaydi. Shu bois apellyativ so‘ zning derivatsion shakllanishi, tayyor lug‘ aviy birlikning geografik obyektga biriktirilishi va boshqa onimning toponimik tizimga ko‘ chishi turli nominatsion usul sifatida tadqiq etilishi lozim. Mazkur maqolaning maqsadi o‘ zbek toponimiyasidagi ana shu usullarning nazariy chegaralarini aniqlashtirish, ilmiy adabiyotlarda uchraydigan struktur va derivatsion talqinlarni qiyoslash hamda ayrim Namangan viloyati nomlari asosida ularning tatbiq chegaralarini ko‘ rsatishdan iborat. Tadqiqot obyekti – o‘ zbek tilidagi

geografik nomlar tizimi; predmeti – toponimlarning struktur-derivatsion, nominatsion-motivatsion va referensial xususiyatlari.

Tilning lug‘at tarkibi ikki qismga: umumiy va maxsus qismlarga bo‘linadi. A.V.Superanskaya to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «Har bir tilda turdosh otlarga qarama-qarshi turuvchi atoqli otlarning ham maxsus sinfi mavjudligi umum tan olingandir». [1, 5–6-b.] Lug‘at tarkibining umumiy qismi kishilar aloqasining barcha turlari uchun qo‘llanadi va *apellyativlar* yoki *apellyativ leksika*, maxsuslangan qismi *onomastik birliklar* deb ataladi. Morfologiya nuqtayi nazaridan apellyativ leksika *turdosh so‘zlar*, onomastik birliklar *atoqli otlar* hisoblanadi.

Apellyativ (lot. *arpellativum* – turdosh) leksika – atoqli otga qarama-qarshi qo‘yiluvchi turdosh otlar va boshqa turkumlarga mansub oddiy so‘zlar. Demak, *apellyativ leksika* – til leksikasidagi atoqli otlar tizimiga mansub bo‘lmagan barcha leksemalar majmui. [2, 16–17-b.] Masalan, *talaba, dars, bahor, quyosh, kun* (ot), *go‘zal, yaxshi, yomon, shirin* (sifat), *bir, uch, ming, million* (son), *men, sen, u, biz, barcha* (olmosh), *bugun, ertaga, avval, keyin* (ravish), *bormoq, kelmoq, aytmoq, so‘zlamoq* (fe’l) kabi.

Onomastik birliklar – onimlar tilning onomastik tizimni tashkil qiluvchi atoqli ot kategoriyalari: *antroponim, toponim, gidronim, zoonim, kosmonim* va boshqalar [2, 68-b.]. Masalan, *Zumrad, Qimmat, Kumush, Otabek, Oybek* (antroponimlar), *O‘zbekiston, Toshkent, Namangan, Chortoq* (toponimlar), *Sardoba, Sirdaryo, Amudaryo, Norin* (gidronimlar), *Boychibor, G‘irot, Ko‘kdo‘nan* (zoonimlar), *Zuhro, Mars, Yetti qaroqchi, Cho‘lpon* (kosmonimlar) kabi.

Atoqli otlar – onomastik birliklar leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, yasalish va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra apellyativ leksikadan farqlanadi. Biz mavzudan kelib chiqib, apellyativ leksika va atoqli otlarning, xususan, toponimlarning yasalish xususiyatlariga e’tibor qaratamiz.

Atoqli va turdosh otlarni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi belgi hamda mezonlar faqatgina ularning ma’nosi, atash xususiyatida emas, balki teranroq bo‘lgan tushunchadir.

ADABIYOTLAR SHARHI VA NAZARIY ASOSLAR

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi masalalari ancha chuqur tadqiq etilgan. 1955-yilda himoya qilingan Ayub G‘ulomovning «O‘zbek tilida tarixiy so‘z yasalishi muammolari» mavzusidagi doktorlik disssertatsiyasi faqat o‘zbek tilshunosligida emas, balki dunyo turkiyshunosligida ham yirik nazariy tadqiqot sifatida e’tirof etilgan. Unda o‘zbek tilining so‘z yasalish qonuniyatlari, tilimizning bu boradagi bitmas-tuganmas imkoniyatlari zakiylik bilan ochib berilgan. [3, 61-b.]

Keyinchalik o‘zbek tilining so‘z yasalish tizimi: yasalish hodisasi, yasama so‘z, uning tarkibi, turlari, so‘z yasash usullari, modellari A.G‘ulomov hamda A.Hojiyev tomonidan monografik tadqiq etildi [4], biroq antroponim va toponimlarning yasalish xususiyatlari, tuzilishiga ko‘ra turlari, modellariga doir F.Abdullayev, E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do‘simov, N.Uluqov, N.Oxunov, N.Husanov, S.Rahimov, Sh.Nizomova [5–15] va boshqalarning tadqiqotlaridagi ayrim tahlil va qarashlarni e’tiborga olmaganda, atoqli otlarning yasalishi masalasi mukammal tadqiq etilmagan, so‘z yasalishiga doir tadqiqotlarda ham chetlab o‘tilgan, e’tibor berilmagan. Natijada «Atoqli otlar, xususan, antroponimlar, toponimlar yasaladimi?», «Atoqli otlar bilan apellyativlar yasalishi umumiylikka egami, ularning yasalishda qanday mushtaraklik va farqli jihatlar bor?», «Atoqli otlar qanday usullar bilan yasaladi?», «Toponimlar ham yasaladimi?», «Toponimlar faqat hosil qilinadimi?» kabi savollar o‘z yechimini topmagan.

Toponimlarning yasalishiga doir tadqiqotlarda derivatsion va struktur-tipologik yondashuvlar turlicha nisbatda qo‘llangan. Shu sababli toponimning tarkibiy tuzilishini aniqlash bilan uning aynan qaysi nominatsion jarayonda yuzaga kelganini izohlash orasidagi metodologik tafovutni belgilash zarur.

Toponimikaga doir ishlarda ko‘pincha toponimlar yasalishi ularning struktural-tipologik tasnifi va tahlil aralash holda o‘rganilgan, toponimlarning yasalish usullari, modellari, yasovchi vositalar aniq va yorqin ochib berilmagan, bu masalalarni yoritishda chalkashliklar bor. Muammo shundaki, toponimlarning yasalish usullari ayrim hollarda farqlanmaydi, keltirilgan dalillar toponimlar yasalishi to‘xtaganday, go‘yo bir paytlar joy nomlari yasalgan, hozirda yasalmaydi degan tasavvur beradi.

To◉g◉ri, toponimlarning yasalishi va tarkibiy tuzilishi, ya’ni derivatsion va struktural tasnifi hamda tahlili bir-biriga bog◉liq bo◉lsa-da, bu masalalar alohida jihatlarga ham ega.

Apellyativ leksika va onimlar (atoqli otlar)ga xos farqli lisoniy belgi-xususiyatlardan biri – ularning yasalishida bo‘lib, apellyativ leksikaning o‘z lisoniy materialiga egaligi, atoqli otlarning esa ana shunday materialga ega emasligidir. Bu farqli lisoniy belgi ko‘pgina onomastikaga doir ilmiy adabiyotlarda alohida ta’kidlanadi. Jumladan, T.A.Serebrennikov: «Toponim va antroponimlar hamisha til bazasida yaratiladi. Ularni hosil qilishda tilning kundalik turmushda ko‘p qo‘llanuvchi modellaridan, qo‘shma so‘zlardan, so‘z birikmalaridan va hatto, butun bir gaplardan foydalaniladi», – deb yozadi. [16, 16-b.]

V.A.Nikonov toponimlarning yasalishidagi o‘ ziga xoslik xususida quyidagilarni bayon etadi: «Toponimika o‘ zining shaxsiy vositalarini ijod qilmaydi, balki oz darajada bo‘ lsa-da, tildagi mavjud imkoniyatlardan foydalanadi». [17, 66-b.]

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan va maqolada misol tariqasida keltirilgan o‘ zbek toponimlari, jumladan Namangan viloyatiga oid oykonim hamda urbanonimlar olingan. Tadqiqotda tavsifiy metod, nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili, morfemik va struktur-grammatik tahlil, shuningdek, nominatsion-motivatsion yondashuv qo‘ llanadi. Sinxron tuzilish asosida ilgari surilgan etimologik taxminlar tarixiy manba orqali alohida tasdiqlanmagan holatda qat’iy genezis xulosasi sifatida baholanmaydi.

Albatta, yuqoridagi fikrlar asosli. Antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, fitonimlar, mifonimlar va boshqa onomastik birliklar ham til birligi, aniqrog‘ i, tilning leksik sathi birligi. Shu nuqtayi nazardan ular ham til qonuniyatlari negizida yashaydi. Boshqa onomastik birliklar kabi Yer yuzidagi tabiiy-geografik va sun’iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli otlarini ifodalovchi toponim (yun. *topos* – joy, o‘ rin + *onoma* – atoqli ot)lar va uning oykonim, oronim, gidronim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim kabi [2, 76–77-b.] o‘ nlab turlari yasalish xususiyatiga ega. Buni toponimik birliklarning struktural-tipologik tasnifi ham tasdiqlaydi. Toponimlar ham ma’no va shakliy tuzilishga ega.

Toponimning tuzilishi deganda uning morfologik tarkibi tushuniladi. Toponimning morfologik tuzilishi – nomning morfemalardan: lug‘ aviy asos va yasovchi affiks; lug‘ aviy asos va toponimik indikator yoki lug‘ aviy asos va topoformantdan iborat tarkibi. Struktural-tipologik tasnifda toponimlar tarkibidagi morfemalar, ya’ni lug‘ aviy asos, yasovchi affiks, topoformant va toponimik indikatorlar e’tiborga olinadi.

Joy nomlari struktural-tipologik jihatdan *sodda tarkibli, qo‘ shma tarkibli, murakkab tarkibli toponimlarga* ajratiladi. Yasalish jihatidan esa tub va yasama toponimlarga ajratiladi.

Toponimik birliklarni yasashda tildagi apellyativ leksika va so‘ z yasovchi affikslar hamda so‘ z yasash usullaridan foydalaniladi. Fikrlarimizni ayrim dalillar misolida izohlashga harakat qilamiz. Masalan, o‘ zbek tiliga fors tilidan o‘ zlashgan *egallovchi* ma’nosini anglatuvchi *-iston* qo‘ shimchasi quyidagi vazifalarda qo‘ llanadi:

xalq, millat nomiga qo‘ shilib, u yashaydigan joyni anglatuvchi o‘ rin oti yasaydi: *O‘ zbekiston, Qirg‘ iziston, Turkmaniston* kabi;

otlarga qo‘ shilib asosdan anglashilgan predmetning mo‘ lligini ifodalovchi o‘ rin oti yasaydi: *bog‘ iston, guliston, cho‘ liston, qabriston* kabi. [18, 580-b.]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

S.Qorayev ta’kidlaganidek, O‘ rta Osiyoda, xususan, O‘ zbekiston va Tojikistonda -iston sermahsul formantlardan biri. Bu mamlakat, o‘ lka nomini yasaydi. [19, 32-b.]

Demak, *-iston* affiksi apellyativlar va onimlar yasashga xizmat qiladi, biroq bu affiks bilan hozirda toponimlar yasalishi kuzatilmaydi. Respublikaning boshqa hududlarida, jumladan, Namangan viloyatidagi *-iston* tarkibli *Bog‘ iston* (Chortoq t.), *Guliston* (Uychi t.) oykonimlariga kelsak, ular affiksatsiya usulida emas, balki konversiya usulida yasalgan, ya’ni yasama *bog‘ iston, guliston* apellyativlarining atoqli otga o‘ tishi mahsulidir.

Namangan urbanonimiyasiga xos «*Lola*», «*Go‘ zal*», «*Oromgoh*», «*Sardoba*», «*Sumalak*» kabi daha nomlari tayyor apellyativlardan hech qanday grammatik vositalarsiz yasalgan. Mazkur toponimlarning lug‘ aviy asosi ot va sifat turkumlariga mansub. Ko‘ rinadiki, atoqli otlarning ko‘ pchiligi turdosh otlardan, ma’lum qismi boshqa turkumga oid so‘ zlar asosida yasaladi.

Yangiqo‘ rg‘ on, Uchqo‘ rg‘ on, Beshkapa, Jiydakapa (Uychi t.), *Peshqo‘ rg‘ on* (Chortoq t.), *Chorkesar* (Pop t.) kabi qo‘ shma tarkibli oykonimlar sintaktik (kompozitsiya) usulida *sifat+ot, son+ot, ot+ot, son+fe’l* modelida yasalgan, *Mustaqillikning besh yilligi* (Uychi t.), *Navro‘ z MFY* (Pop t.), *Navoiy shoh ko‘ chasi, Islom Karimov shoh ko‘ chasi* (Nam. sh.) kabi toponimlar transonimizatsiya usulida hosil qilingan.

Ilmiy adabiyotlarda atoqli otlar, jumladan, toponimlar yasalmaydi, hosil qilinadi degan qarashlar bor. A.Hojiyevning fikricha, «... tildagi mavjud birliklar, so‘ z yasalish birliklari asosida, ma’lum usul orqali yangi so‘ z hosil qilish bilan u yoki bu til va nutq birliklarining, ma’lum sabablar tufayli, lug‘ aviy birliklarga o‘ tishi boshqa-boshqa hodisalardir».

Olimning fikricha, so‘ z yasalishining leksik-semantik usul, morfologik-sintaktik usul deb ta’riflanayotgan turlarida ham so‘ zning biror sabab tufayli yuzaga kelish hodisasi bor, lekin so‘ z yasalish hodisasi yo‘ q. [4, 8-b.]

Albatta, bu fikrda ham ma’lum asos bor. Ayrim onomastik birliklar til leksikasida mavjud o‘ z va o‘ zlashma qatlamga mansub oddiy so‘ zlar, apellyativ leksik birliklardan hamda boshqa onomastik birliklardan yasaladi, hosil qilinadi.

Hamma tipdagi so‘ z yasalishi uchun umumiy belgi yangi leksema hosil qilishdir. [20, 22–23-b.] Yasama so‘ zning tarkibi uni tashkil etuvchi qismlardan iborat bo‘ ladi. Yasama so‘ z so‘ z yasalish asosiga so‘ z yasovchini qo‘ shish bilan

hosil qilinadi. Binobarin, har bir yasama so‘ z ana shu ikki qismdan iborat bo‘ ladi, ya’ni so‘ z yasalish tarkibi so‘ z yasalish asosi va so‘ z yasovchidan tuziladi.

Yasama so‘ z tub so‘ z, shuningdek, yasama so‘ zdan hosil qilinishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham yasama so‘ zning tarkibi ikki qism (komponent) dan iborat bo‘ ladi. Masalan, *terim* so‘ zining yasalish tarkibi *ter* (so‘ z yasalish asosi) va *-im* (so‘ z yasovchi) dan iborat. So‘ z yasalish asosi bilan so‘ z yasovchining mohiyatini to‘ g‘ ri belgilash, umuman so‘ z yasalishining, yasama so‘ zning mohiyatini to‘ g‘ ri belgilash imkonini beradi. [4, 17-b.]

O‘ zbek tili toponimiyasi materiallari va ilmiy tadqiqotlardagi fikrlarga tayanadigan bo‘ lsak, o‘ zbek tilida toponimlar affiksatsiya va kompozitsiya usullarida yasaladi.

S.Qorayev toponimlar yasalishi haqida fikr yuritib, ularning yasalishida affikslar, ya’ni formantlar ishtirok etishini qayd etadi va *-diz, -iston, -obod, -kent* kabi elementlarni toponim yasovchi affikslar deydi. [21, 115–119-b.]

Z.Do‘ simovning «Toponimlarning yasalishi masalasiga doir» maqolasi o‘ zbek tilshunosligidagi nafaqat toponimlar yasalishi, toponimika nazariyasiga doir yaxshi ishlardan biri. [22, 56-b.]

Z.Do◎simovning fikricha, toponimlar yasalish prinsipi jihatidan oddiy so◎z yasalishidan farq qilmaydi. So◎z yasalishi usullari va vositalari toponim yasashda ham ishtirok etadi. Ammo ... atoqli otlarning o◎ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e’tiborga olmoq lozim. [23, 44-b.]

Olim toponimlar yasalishi borasidagi nozik qirralarga e’tibor qaratadi. U toponimning yasalishini va u tildagi yasama so‘ z asosida yuzaga kelishini farqlash lozimligini to‘ g‘ ri uqtiradi. Uning yozishicha, Qoraqalpog‘ iston toponimlarini o‘ rgangan Q.Abdumuratov *Ashamayli, Balg‘ ali, Cho‘ michli, Qazayaqli* kabi etnotoponimlarni, turkman toponimisti S.Ataniyazov esa *Yilanli, Sayatli* toponimlarini *-li* qo‘ shimchasi vositasida yasalgan deb hisoblaydilar. Aslida bunda etnik nom – etnonim toponimga aylangan. Bu o‘ rinda so‘ z *ilon* urug‘ i haqida emas, balki *Ilonli* urug‘ i, ya’ni tamg‘ asida ilon belgisi mavjud bo‘ lgan etnik guruh haqida bormoqda. [23, 44–47-b.] A.Otajonovaning qayd etishicha, yuqoridagi etnotoponimlar *-li* qo‘ shimchasi vositasida emas, balki *bolg‘ ali, ilonli* va boshqa etnonimlarning toponimga ko‘ chishi natijasida vujudga kelgan. Demak, yuqoridagi nomlar affiksatsiya usulida emas, balki toponim yasalishining boshqa usulida yuzaga kelgan. [24, 75-b.]

Z.Do‘ simov toponimlarning yasalishi xususida fikr yuritar ekan, apellyativlardan toponim yasalishi va ularning toponimlashuvini dalillar asosida yoritadi.

Leksemalar toponimga aylangach, ma’lum obyekt bilan bog‘ lanadi va shu obyektni ifodalash uchun maxsuslashadi. Leksemalarning toponimga aylangunga qadar bo‘ lgan ma’nosi ikkinchi planga tushadi. U toponimga aylangach, uning asosiy funksiyasi ma’lum obyektni xuddi shunday boshqa obyektdan farqlashdan iborat bo‘ ladi. Shunday ekan, bu holatlar bilan bog‘ liq holda uning formal-morfologik xususiyati o‘ zgaradi. [23, 45-b.]

Yuqoridagi qarashlar va toponimik materiallarni qiyoslash asosida quyidagi nazariy natijalarni umumlashtirish mumkin:

Atoqli otlarning yuzaga kelishi tarkibiy yasalish va tayyor lug‘ aviy birliklarning atoqli nom maqomiga o‘ tishi kabi farqli hodisalarni qamrab oladi.

Toponimlar umumtil leksikasi, grammatik modellari va tarixan shakllangan nominatsion vositalarga tayanadi; ularning o‘ ziga xosligi, avvalo, geografik obyektni individual nomlash vazifasida namoyon bo‘ ladi.

Toponimning sinxron tarkibi uning diaxron genezisini to‘ liq isbotlamaydi. Shu bois morfemik tuzilish, nomning motivatsiyasi hamda shakllanish usuli alohida tekshirilishi kerak.

Toponimik nominatsiyada qo‘ llanadigan lug‘ aviy va struktur modellar tanlanma xarakterga ega. Ularning mahsuldorligi muayyan davr va hudud materiallari asosida baholanishi lozim.

XULOSA. O‘ zbek toponimik tizimining derivatsion xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko‘ rsatadiki, geografik nomning morfemik tarkibi va uning onomastik nominatsiya jarayoni o‘ zaro aloqador bo‘ lsa-da, bir hodisa emas. Apellyativ derivatsiya tilda leksik birlikni shakllantirsa, onomastik nominatsiya mazkur birlikni muayyan geografik referent bilan bog‘ lab, individual nomlash funksiyasini yuzaga chiqaradi. Shunga ko‘ ra tayyor yasama apellyativlardan hosil bo‘ lgan nomlarda affiksni bevosita toponim yasovchi vosita deb talqin qilish doimo asosli emas.

Maqolada ko‘ rilgan Bog‘ iston, Guliston, Lola, Yangiqo‘ rg‘ on, Uchqo‘ rg‘ on va boshqa nomlar misolida struktur model, nominatsion manba hamda tarixiy genezisni alohida mezonlar yordamida baholash zarurligi aniqlandi. Xususan, bir xil shakldagi nom apellyativdan onimlashuv yoki boshqa atoqli nomdan transonimizatsiya yo‘ li bilan yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli onomastik konversiya, kompozitsiya va transonimizatsiyaning chegaralarini aniqlashda tarixiy attestatsiya, hududiy material va nomlash motivatsiyasi hal qiluvchi daliliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суперанская А.В. Апеллятив – онома // Имя нарицательное и собственное. – М.: Наука, 1978. – С. 5–33.

2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 104 б.

3. Маҳмудов Н. Тилшунос тақдири // Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.

4. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Тошкент: O‘ qituvchi, 2007. – 168 б.

5. Абдуллаев Ф. Киши отларининг қисқартириш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1960. – № 3.

6. Абдуллаев Ф. Баъзи киши отлари ва уларнинг қисқарган формалари // Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961. – 1-т. – Б. 106–109.

7. Бегматов Э. Глагольные антропонимы // Тюркская ономастика. – Алма-Ата, 1984. – С. 199–206 [asl snoskadagi «199–2006» shakli tekshiriladi].

8. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1965. – 483 б.

9. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 608 б.

10. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.

11. Ҳусанов Н.А. XV аср ўзбек адабий ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 2-к. – 134 б.

12. Ҳусанов Н.А. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2000.

13. Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Navro‘ z, 2014. – 244 б.

14. Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 1998. – 24 б.

15. Низомова Ш. Ўзбек тахаллусларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. фал. док. ... диссер. – Наманган, 2021. – 222 б.

16. Серебренников Б.А. О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания. – 1959. – № 6. – С. 36–51.

17. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – 179 с.

18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: O‘ zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 5-ж.

19. Қораев С. Топонимика. – Тошкент: O‘ zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2006. – 320 б.

20. Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – I т. – 609 б.

21. Қораев С. Топонимия Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – 129 с.

22. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – 131 б.

23. Дўсимов З. Топонимларнинг ясалиши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – № 2.